

Asadbek Xusanboyev Vohidjon o'g'li

*Nizomiy nomidagi O'zMPU kechki bo'lim
tarix fakulteti 401- guruh talabasi*

Asadbek Xusanboyev Vohidjon o'g'li

Ilmiy rahbar: PhD, dots. Yakobjanov J.J

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur hamda u asos solgan Temuriylar davlati davlatchilik tizimining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada Amir Temurning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tamoyillari, harbiy tuzilma va tashqi siyosatdagi yondashuvlari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, Temuriylar davlati davrida shakllangan markazlashgan boshqaruv tizimi, devonlar faoliyati, viloyatlar boshqaruvi, adliya va moliya tizimining o'ziga xos jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Shohrux Mirzo, Ulug'bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlarning bu an'analarni davom ettirishdagi o'rni alohida e'tirof etilgan. Maqola yakunida Temuriylar davlatchiligi merosining hozirgi O'zbekiston davlatchiligi rivojida tutgan o'rni, uning adolat, tartib va maslahat tamoyillari asosidagi boshqaruv modeli sifatida tarixiy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar davlati, davlatchilik, boshqaruv tizimi, devon, Temur tuzuklari, adolat, siyosiy meros.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы формирования, развития и исторического значения государственности Амира Темура и основанного им государства Тимуридов. В работе анализируется политическая деятельность Амира Темура, принципы государственного управления, особенности военной организации и направления внешней политики на основе исторических и научных источников. Особое внимание уделено системе централизованного управления, структуре диванов, деятельности провинциальных наместников, а также специфике судебной и финансовой систем периода Тимуридов. Подчёркнута роль таких правителей, как Шахрух Мирза, Улугбек и Хусейн Байкара, в развитии и сохранении тимуридских традиций государственности. В заключении статьи обосновывается значение государственного наследия Тимуридов в контексте современного развития государственности Узбекистана, а также показано, что модель правления, основанная на принципах справедливости, порядка и совета, имеет глубокое историческое и теоретическое значение.

Ключевые слова: Амир Темур, государство Тимуридов, государственность, система управления, диван, «Темур тузуклари», справедливость, политическое наследие.

Annotation: *This article examines the formation, development, and historical significance of the statehood of Amir Temur and the Timurid Empire he established. The study analyzes Amir Temur’s political activities, the principles of governance, the structure of the military system, and his foreign policy directions based on historical and scholarly sources. Special attention is given to the centralized administrative system, the structure and functions of divans (government departments), the role of regional governors, and the distinctive features of the judicial and financial systems during the Timurid period. The roles of rulers such as Shahrukh Mirza, Ulugh Beg, and Husayn Bayqara in maintaining and developing the Timurid traditions of statehood are also emphasized. In conclusion, the article highlights the importance of the Timurid state legacy in the context of modern Uzbek statehood, demonstrating that the model of governance based on the principles of justice, order, and consultation has deep historical and theoretical significance.*

Keywords: *Amir Temur, Timurid state, statehood, system of governance, divan, justice, political legacy.*

Amir Temur davlatchiligi tarixini ilmiy jihatdan o‘rganish, uni o‘rta asrlar siyosiy tafakkuri va davlat nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish Markaziy Osiyo siyosiy madaniyatining eng yuksak bosqichini aniqlash imkonini beradi. Amir Temur asos solgan davlat modeli siyosiy legitimlik, markazlashgan boshqaruv, qonuniylik va adolat tamoyillariga tayanib, davlatchilik evolyutsiyasida muhim o‘rin tutadi. Uning hokimiyati kuch orqali emas, balki siyosiy asos va ijtimoiy legitimlik orqali mustahkamlangan. Amir Temur hokimiyatni o‘z shaxsiy fazilatlar bilan, huquqiy hokimiyatni esa “Temur tuzuklari” kabi qonuniy asoslar bilan mustahkamladi¹¹. “Temur tuzuklari” davlatni tashkil etish va boshqarishning normativ-huquqiy asosini belgilab bergan asar bo‘lib, unda hokimiyatni adolat asosida yuritish, boshqaruvda maslahatga amal qilish, amaldorlarning javobgarligi, soliqqa tortish va harbiy intizom masalalari qat’iy ko‘rsatmalar bilan bayon qilingan. Ushbu asar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, o‘rta asr sharq davlatchiligining ilk “konstitutsiyaviy” modelidir¹². “Temur tuzuklari”da davlatni boshqarishning asosiy g‘oyasi “adl” — ya’ni adolat konsepsiyasidir. Bu konsepsiya islom siyosiy falsafasida Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk va Ibn Xaldunlar tomonidan ilgari surilgan “adl davlatning tayanchi” degan nazariy qarash bilan uyg‘unlashadi. Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida keltirilgan “adolat davlatning hayotidir” degan fikr Amir Temur davlatchilik konsepsiyasida amaliy shaklga aylangan. Amir Temurning siyosiy tizimi o‘rta asrlar islomiy boshqaruv nazariyasining — “siyosat ash-shar’iyya”ning — amaliy ifodasidir. Bu nazariyaga ko‘ra, davlat hokimiyati shariat me’yorlariga asoslanib, ijtimoiy manfaatni ta’minlashi kerak. Temur davlatida qonun shariat asosida yuritilgan bo‘lsa-da, u uni siyosiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirib, hokimiyatni ijtimoiy manfaatlar bilan muvozanatlashtirgan. Shunday qilib,

¹¹ Amir Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.B-232.

¹² Amir Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. B-232 .

uning siyosiy tizimi diniy-legitim asos va siyosiy-pragmatik maqsadlarning uyg'unlashgan modelidir.

Davlatning boshqaruv tizimi qat'iy markazlashtirilgan bo'lib, unda oliy hokimiyat sohibi — Sohibqironning shaxsiy nazorati ustuvor o'rin egallagan. Davlat idoralar tizimi “devon”lar orqali amalga oshirilgan: devon-i a'lo — oliy idora, devon-i arz — harbiy ishlar, devon-i incho — diplomatiya, devon-i mol — moliya masalalari bilan shug'ullangan¹³. Temuriylar davlati boshqaruvining tuzilmasi markazlashgan harbiy-byurokratik tizim bo'lib, unda hokimiyat vertikal tarzda tashkil etilgan. Bu tizim keyinchalik “Sharq byurokratik modeli” deb atalgan boshqaruv nazariyasiga yaqin. Max Veber ta'riflaganidek, byurokratik boshqaruvning asosiy belgilari — lavozimlarning ierarxik tartibi, aniq vakolat doiralari va rasmiy hujjat aylanishidir. Temur davlatida bu tamoyillar qat'iy amal qilgan: har bir amirning, devonning, viloyat hokimining vazifasi qonun bilan belgilangan, ular faoliyati ustidan markaziy nazorat o'rnatilgan. Bu tizim davlatning markazlashuvini, siyosiy barqarorlikni va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlagan. Davlatning kuchi, Temur nazarida, faqat hokimiyat emas, balki ijtimoiy intizom, iqtisodiy barqarorlik va ma'naviy birlikda mujassam bo'lgan. Shu ma'noda u hokimiyatni “ijtimoiy kontrakt” sifatida talqin qilgan: xalq hukmdorga itoat etadi, hukmdor esa xalqni adolat bilan boshqaradi. Temur o'z amaldorlariga xalq oldidagi mas'uliyatni doimo eslatib, “men saltanatni adolat bilan tutmasam, xalqning menga itoat etishi vojib emas” degan fikrni ilgari surgan. Temur davlatchiligidan iqtisodiy poydevori ham mustahkam edi. U soliq tizimini tartibga solib, harbiy va iqtisodiy resurslarni markazlashtirish orqali davlatni iqtisodiy jihatdan mustaqil holatga keltirgan. Bu tizim iqtisodiy markazlashuv nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, davlat resurslarini bir markazda to'plash orqali ichki siyosiy barqarorlikni saqlash maqsadini ko'zlagan.

Temuriylar davlatining tashqi siyosati ham aniq nazariy asosga ega bo'lgan. U real siyosat tamoyiliga amal qilib, kuch muvozanatini saqlash orqali xalqaro nufuzni oshirgan. Temur diplomatiyasida harbiy kuch, iqtisodiy manfaat va siyosiy nufuz bir-birini to'ldirgan. Uning Hindiston, Eron, Iroq, Kavkaz, Rossiya va Xitoy bilan olib borgan diplomatik aloqalari bu nazariyaning amaliy isboti sifatida tarixda o'rin egallagan. Amir Temurdan so'ng Shahrux, Ulug'bek va Husayn Boyqaro kabi hukmdorlar bu davlat boshqaruvi tizimini davom ettirdilar. Ayniqsa, Ulug'bek davrida ilm-fan va ma'rifat davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylangan. R. Shamsutdinov bu davrni “Temuriylar davlatchiligi g'oyalarining nazariy jihatdan boyigan bosqichi” sifatida tavsiflaydi¹⁴. Temuriylar davrida siyosiy barqarorlik va davlat boshqaruvi an'analari Shohrux Mirzo, Ulug'bek va Husayn Boyqaro davrlarida yanada takomillashdi. Ayniqsa, Ulug'bek davrida ilmiy boshqaruv konsepsiyasi kuchaydi, ya'ni siyosat ilm va ma'rifat bilan uyg'unlashgan. Bu davrda ilm-fan, iqtisodiy taraqqiyot va madaniyat davlat siyosatining bir qismiga aylangan. Natijada Temuriylar davlati o'rta asrlarda Sharqdagi eng yuksak siyosiy, iqtisodiy va madaniy

¹³ Ahmedov B. Amir Temur davlati boshqaruv tizimi va uning tarixiy ahamiyati. — Toshkent: Fan, 1989. B-212.

¹⁴ Shamsutdinov R. Temuriylar davri boshqaruv tizimi va siyosiy tafakkur. — Toshkent: Ma'naviyat, 2019. B-276.

tizimga ega davlat sifatida tarixda qolgan. Ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Amir Temur davlatchiligi Sharq va G'arb siyosiy nazariyalarining o'ziga xos sintezi bo'lgan. Unda islom siyosiy falsafasi, real siyosat, ijtimoiy shartnoma va legitim hukmronlik nazariyalarining asosiy tamoyillari birlashtirilgan. Shu bois, Temuriylar davlati nafaqat o'z davrining siyosiy kuch markazi, balki nazariy jihatdan ham mukammal davlatchilik modeli sifatida e'tirof etiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Shamsutdinov, R. Temuriylar davri boshqaruv tizimi va siyosiy tafakkur. — Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
3. Ahmedov B. Amir Temur davlati boshqaruv tizimi va uning tarixiy ahamiyati. — Toshkent: Fan, 1989.
4. Rustamov, A. Temuriylar davlatining iqtisodiy siyosati va moliya tizimi. — Toshkent: Iqtisod, 2007.